

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili (Sharqiy Farg'ona hududi misolida)	101
R.N.Mo'minova Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari.....	106
S.D.Dadaev, D.A.Paluaniazova О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого рогатого скота Каракалпакстана	110
S.B.Orifov, F.R.Xolboyev Hind chumchug'i- <i>Passer indicus</i> ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati	116
N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera)	121
M.A.Axmadjonova Farg'ona vodiysida tarqalgan <i>Sitona</i> Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga mansub turlarning bioekologik xususiyatlari.....	127
V.A.Karimov, M.Nazarov Jadal texnologiyada arpa yetishtirish	133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish	142
I.O.Sulaymonov O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlarini	146
Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi	150
I.Aripov, R.Mariya Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining iqtisodiy baholanishi	154
A.U.Usmonov, A.K.Ergashev Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari (Vobkent tumani misolida)	161
O.N.Xakimov Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi	166
O.N.Xakimov Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasi tadqiq qilishdagi o'rni.....	178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili	190
A.A.Akramov Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish modeli.....	195
M.J.Urinov Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga falsafiy tavsif	199
B.F.Abdishukurov Markaziy Osiyodagi hududiy-chegaraviy muammolar (1924-yildan keyingi voqealar xususida).....	203
A.M.To'rayev Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish	207
Sh.M.Kadirov Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	210



UO‘K: 9.908

**TARIXIY MANBALARDA KELITIRILGAN QASHQADARYO DARYOSI TO‘G‘RISIDAGI
MA‘LUMOTLAR TAHLILI****АНАЛИЗ ИНФОРМАЦИИ О РЕКЕ КАШАДАРИЯ, ПРЕДСТАВЛЕННОЙ В
ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ****ANALYSIS OF INFORMATION ABOUT THE KASHADARIA RIVER GIVEN IN
HISTORICAL SOURCES****Altiboyev Yuldosh Ergash o‘g‘li** 

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan, Qashqadaryo daryosining qanday nomlar bilan atalib kelinganligi to‘g‘risidagi muammolarning yechimini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda Qashqadaryo daryosi to‘g‘risidagi yozma manba ma‘lumotlari davrma-davr qanday nomlar bilan atalganligi tahlil qilingan va ochib berilgan. O‘rta Osiyoda qadimdan boshlab, qayd etib kelingan geografik tushunchalar -tog‘lar, daryolar, soylar, ko‘llar, ariqlarning nomlari haqida qisqa bo‘lsada ma‘lumotlar berilgan. Lekin Qashqadaryo daryosi to‘g‘risidagi yozma manba ma‘lumotlari hozirgacha to‘laqonli tahlil qilinmagan.

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию решения проблемы названий реки Кашкадарья, зафиксированных в исторических источниках. Время от времени анализируются и выявляются названия письменных источников о реке Кашкадарья. Даны краткие сведения о географических понятиях - названиях гор, рек, ручьев, озер, рвов - зафиксированных в Средней Азии с древнейших времен. Однако письменные источники о реке Кашкадарье до сих пор не проанализированы в полной мере.

Abstract

This article is devoted to the study of the solution to the problems of the names of the Kashkadarya river recorded in historical sources. It analyzes and reveals the names of the written sources about the Kashkadarya river from time to time. Brief information is given about the geographical concepts - the names of mountains, rivers, streams, lakes, ditches - which have been recorded in Central Asia since ancient times. However, the written source information about the Kashkadarya River has not been fully analyzed yet.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo vohasi, Du-mo, Asrud, Kash, Kashk-rud, tog‘lar, daryolar, ko‘llar, Xuzor, Said qudug‘i.

Ключевые слова: Кашкадарьинский оазис, Ду-мо, Асруд, Каш, Кашкруд, горы, реки, озера, Хузар, колодец Саид.

Key words: Kashkadarya oasis, Du-mo, Asrud, Kash, Kashk-rud, mountains, rivers, lakes, Khuzar, Said well.

KIRISH

O‘rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari o‘z tarixini yozma ravishda yorita olmaganlar, agar yorita olgan bo‘lsa ham o‘sha davrlarga oid mahalliy yozma manbalar hozirgi vaqtgacha topilgan emas, yoki bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Yurtimiz tarixiga tegishli bo‘lgan ilk yozma manbalar – “Avesto”, Ahamoniylar davri mixxatsimon yozuvlari va qadimgi dunyo (Yunon-Rim) davriga oid manbalar hisoblanadi. Ular Qadimgi Sharq hamda dunyo tarixida birinchi bo‘lib o‘lkamizdagi qadimiy xalqlar nomlarini, alohida joylar, tog‘lar, daryolar, ko‘llar va ariqlar nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholar nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmush tarzi, dini, urf-odati, moddiy madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tuzumi to‘g‘risidagi uzuq-yuluq ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. Bu manbalar juda kam bo‘lganligi sababli ham ulardan qadimdan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish borasida arxeologik manbalarga murojaat etish zaruriyati kelib chiqadi. Ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlar davomida olingan arxeologik ma‘lumotlar mavjud yozma manbalarni to‘ldiradi va tarixiy taraqqiyotning aniq yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Masalan qadimgi yunon tarixchisi Gerodot O‘rta Osiyoda xalqlar joylashuvidagi aniqlik bilan birga ularning umumiy chegaralari to‘g‘risidagi qadimgi geografik tushunchalar - daryolar, tog‘lar,

ILMIY AXBOROT

ko'llar va ariqlarning nomlari, hududiy etnik qabilalar va qadimgi mamlakatlar nomlari haqida ham ma'lumotlar bergan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur mavzuning tarixshunosligi anchagina boy sanalsa-da bugungi kun tarixchilari tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan. Mavzuning birlamchi manbalari sifatida yunon tarixshunoslari Geradod, Arrian va qadimgi rim tarixshunosi Kursiy Rufflarning bizgacha saqlanib kelgan asarlari, qadimiy Xitoy manbalaridan foydalanilgan. Shuningdek, Qashqadaryo vohasi va Qashqadaryo daryosi to'g'risida juda keng ma'lumotlar qayd etilgan arab yozma manbalari; Ibn Xordadbek, arab geografi Ibn Havqalning "Kitob surat alard" (Yerning surati kitobi) asari, Ibn Havqalning geografiyaga oid asarlari, va mahalliy tarixshunoslardan Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari, Sharofiddin ali-Yazdiyning "Zafarnoma" asari va muallifi noma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam" asarlaridan birlamchi manba sifatida foydalanildi.

Maqolani yozishda yuqoridagi asarlardan atroflicha o'rgangan holda foydalanildi. Ushbu maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, voqealar rivoji va natijalariga to'g'ri va xolisona fikr bildirilib, dalillarga asosan xulosa taqdim etildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Manbalarda miloddan avvalgi IV asrda Qashqadaryo hududi bilan bog'liq uchta viloyat – Nautaka, Ksenippa va Gabaza tilga olinadi. Bu haqda yunon tarixshunosi Arrian va qadim rimlik Kursiy Ruf ham ma'lumot beradi. Qadimgi Kesh (Shahrisabz) ning nomi qadimgi Xitoy yozma manbalarida Suse, ilk o'rta asrlar yozma manbalarida esa Shi nomi bilan atalib kelingan. Bundan tashqari Qashqadaryo daryosi ham eramizning boshlaridan Xitoy yozma manbalarida "Du-mo" nomi bilan qayd etilganligi hamda Qashqadaryoning sharqdan, g'arbga tomon to'la holda bo'lib oqqanligi aytiladi [Bichurin 1950-1953: 382].

Qashqadaryo vohasi va Qashqadaryo daryosi to'g'risida ma'lumotlar arab yozma manbalarida ko'proq qayd etilgan bo'lib, unda joylar, daryolarning nomlari, tog' soylari, sun'iy sug'orish tarmoqlari, eski o'zanlar va ariqlar to'g'risida kengroq ma'lumotlar berib boriladi.

Masalan IX asrda Kesh (Shahrisabz) va Nasaf (Qarshi) shaharlari va ularning atrofida sug'oriladigan yer maydonlari Asrud (Qashqadaryo) daryosi hisobidan o'zlashtirilganligi aytiladi. Vohadagi Asrud daryosi (Qashqadaryo) Kash (Kesh daryosining nomi) rustoqidan oqib o'tib Keshdan shimolroqda joylashganligi aytiladi [Ibn Xordadbek 1986: 76]. Bundan tashqari, aniqroq ma'lumotlar arab geografi Ibn Havqalning kitobi "Kitob surat alard" ("Yerning surati kitobi")da, Kesh shahrida ikkita katta ariq (daryo) bor ekanligi aytiladi. Ularning biri Kashk-rud, ikkinchisi "Nahr al Qassorin" (Tozalovchilar daryosi) nomlari bilan ataladi. U Siyom (bu tog'ning hozirgi nomi Som) tog'idan boshlanadi deyilgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida esa Sinom nomi bilan uchraydi [An Narshaxiy 1991: 271].

Mahmud ibn Valining bergan ma'lumotlarida esa Nasaf bilan Sag'aniyon orasidagi tog'lar "Siyom" deb atalganligi aytiladi [Mahmud ibn Vali 1977: 167]. Bu tog'dan boshlanadigan "Nahr al Qassorin" daryosi Kesh shahrining janub tomonidan oqib o'tganligi aytilgan. Ikkinchi ariq "Nahr Asrud" (Qashqadaryo) deb atalib, Kashk-rud rustoqidan oqib chiqadi va shaharning shimol tomonidan oqib o'tadi deb aytilgan. Bu ikkala katta ariq (daryo) shahar darvozalari yonidan oqib o'tganligi qayd etiladi [Ibn Havqal 2011: 65-67].

Kesh (hozirgi Shahrisabz) rustoqida bundan tashqari ham daryolar borligi aytilgan. Ularning ham nomi ikki so'z birikmasidan iborat ekanligi ta'kidlangan.

Birinchisi; "Xaruda" ("Xa" –Kitobdan, shimolda oqib o'tadigan daryoning nomini bersa, ikkinchi bo'lagi sug'dcha so'z "rod" –daryo nomini beradi) daryosi bo'lib, Samarqand yo'li tomonida, shahardan bir farsax (1farsax taxminan, 5-6 km ga teng) masofada oqadi. Bu daryoning hozirda Qashqadaryo nomi bilan atalishi haqiqatga yaqinligi ham aytiladi [Lur'e 2004: 389]. Chunki Qashqadaryo, Kitobdan bir oz shimolroqdan oqib o'tadi.

Ikkinchisi; Balx yo'lidagi daryo, "Xushkrud" (bu daryoning nomi Kashk-rud nomining forslashgan shakli bo'lib) "quruq o'zan" ma'nosini beradi. Bu daryo hozirda Qizildaryo yoki Yakkabog'daryo bo'lishi mumkin. Chunki shahardan bir necha farsax masofada, tepada oqib o'tadi deganiga qaraganda Qizildaryo deb atalishi haqiqatga yaqinroq. Masalan, yoz oylarining o'rtalarida

daryoning suvi qurib qoladi. Shu sababli ham Qizildaryoni “quruq o‘zan” deb atagan bo‘lishi mumkin [Lur’e, Lyapunova, Mate, Piotrovskiy, Litner 1940: 352].

Uchinchisi; Balx yo‘lida, “Xuzorrud” (hozirda bu G‘uzordaryo yoki O‘radaryo bo‘lishi mumkin) deb ataladi. “Xuzor” –tarixdan bizga ma‘lumki hozirda, G‘uzordaryo havzasida joylashgan rustoq. VIII asr boshlarida Xuzor (G‘uzor) ning mahalliy hukmdori Sabukra ismli turkiy dehqon bo‘lgan. Uning Xuzordagi qal‘asi juda ham mustahkam bo‘lib, uni arablar kuch bilan qo‘lga kirita olmaganlar. So‘ngra arablar u bilan ahdnoma tuzishga majbur bo‘lganlar. Bu daryoni boshqarish esa mahalliy hukmdor Sabukranning ixtiyorida bo‘lgan [At –Tabari 1987: 340]. “Xuzorrud” shahardan sakkiz farsax masofada oqadi. Qadimda bu daryoning ortiqcha suvlari Nasaf (Qarshi)ga qarab oqadigan daryo o‘zanlariga qo‘shilganligi aytiladi. Mana shu masalada tadqiqotlar olib borgan A.A.Raimqulovning bergan fikriga ko‘ra, Xuzor rustoqi hozirgi Dehqonobod va G‘uzor tumanlarining tog‘li hududlarini o‘zi ichiga olib, ularning chegaralari janubda “Temir darvoza” gacha yetib borganligi aytiladi (Raimqulov 2018: 102-103). Nasaf (Qarshi) hududida faqatgina bir yirik daryo bo‘lib, uni shaharning o‘rtasidan oqib o‘tganligi aytiladi. Unga Kesh (Shahrisabz) vohasi orqali o‘tgan Tanhozdaryo va “Xuzorrud” (G‘uzordaryo) suvlari kelib qo‘shilgan. Bu daryo shubhasiz Qashqadaryo bo‘lib, o‘rta asrlarda u “Kesh daryosi” nomi bilan ham yuritilgan.

O‘rta asrlarda Nasaf (Qarshi) orqali yo‘l, Amudaryo bo‘yidagi Kelif shahrigacha cho‘l orqali o‘tgan. Bundan tashqari Buxorodan–Kelifga, Nasaf (Qarshi) ni chetlab o‘tuvchi 4 kunlik yolg‘iz og‘q yo‘l ham bo‘lgan. Bu yo‘l orqali o‘tgan savdo karvonlari Jikim, Rabot Atiq ya‘ni “Eski rabot” va Jubb Sa‘id, ya‘ni “Sa‘id qudug‘i” nomli joylarda to‘xtab o‘tganligi aytiladi. “Eski rabot” va “Sa‘id qudug‘i” ikkalasi ham Nasaf viloyatiga qarashli joy bo‘lgan. Hozirgi Ko‘hna Fazli qishlog‘i va Muborak tumani o‘rtasidagi yo‘l IX–X asrlarga oid ikkita yirik yodgorlik mavjuddir. Ular hozirgi Pomuk qishlog‘idan g‘arbda joylashgan Qo‘shrabot qal‘asi hamda Pomukdan 8 km, janubiy-sharqda joylashgan Qiziltepa yodgorliklaridir. Bu yodgorliklar IX–XII asrlarda Buyuk Ipak yo‘li orqali o‘tgan savdo karvonlarining to‘xtashi va xordiq chiqarishi uchun xizmat ko‘rsatadigan mustahkam rabodlar hisoblangan [Kabanov 1950: 127].

XI-XII asrlarda Nasafdan 2 farsax (1farsax –taxminan 5 yoki 6 km) masofada bo‘lgan Kelif yo‘lida “G‘ubdin” nomli qishloq va uning atrofida shu nom bilan atalgan rustoq ham bo‘lgan. Demak, Nasaf va Jayxun (Amudaryo) oralig‘idagi cho‘l hududi shu qishloqdan janubroqdan boshlangan bo‘lib, Nasaf hududida bundan tashqari ham qadimgi katta shaharlar bo‘lgan. Ulardan ikkitasining maydoni katta markazlashgan shaharlar qatorida bo‘lib, Birinchisi “Bazda” (hozirgi Ko‘hna Fazli) qadimgi shahar xarobasidir. “Bazda” to‘g‘risida arab yozma manbalarida, Buxoro yo‘lida joylashgan mustahkam qal‘asiga ega bo‘lgan qadimgi katta shahar bo‘lganligi aytilgan. Ushbu manbada shaharning atroflarida suv tanqis bo‘lsa ham dehqonchilik (lalmi) qilinganligi ta‘kidlangan. O‘sha paytlarda Nasafda yoz oylarining o‘rtalariga kelib, Qashqadaryoning suvi yetib bormay qurib qolgan. Shu sababli ham turar joy aholisining vohadagi ekinlarini sug‘orishda asosan quduq suvlaridan foydalanganligi aytilgan [Abu Said as-Samanii 1981: 90].

“Hudud al olam” asarida esa Asrud (Qashqadaryo) daryosining suvi asrlar davomida qadimgi shahar (Nasaf) va uning atrofidagi yerlarni sug‘orishga yetib bormay qurib qolganligi to‘g‘risida ma‘lu-motlar keltirilgan. Shuning uchun ham aholi ekinlarni sug‘orishda yangi quduqlar qazdirilganligi va ulardan yerlarni sug‘orishda foydalanganliklari aytilgan [Hudud ul-olam 2008: 64]. Hozirda “Bazda” shahrining xarobalari Shulliktepadan 40 km, Qamashi qishlog‘idan 10 km uzoqlikda janubiy-g‘arbda joylashgan bo‘lib, bu yodgorlik hozirda Ko‘hna Fazli nomi bilan ataladi. Yodgorlikning eng pastki qatlamlari miloddan avvalgi II-I asrlarga oid bo‘lib, u juda yaxshi saqlanib qolgan.

Ikkinchi shahar xarobasi manbalarda “Kasba” nomi bilan tilga olinadi. Kasba, Kasbi shahrining xarobalari bizning kunlarga Kasbitepa yodgorligi sifatida yetib kelgan [Lunina 1984: 28]. O‘rta asrlarda “Kasba” qadimgi shaharning egallagan yer maydoni, Nasafnikidan ham kattaroq bo‘lganligi aytiladi (Muqaddasiy 1967: 230). Mo‘g‘ullar istilosidan keyin esa Kasbi manbalarda “katta qishloq” nomi bilan tilga olinadi. Bu qishloq hozir ham mavjud bo‘lib, Shulliktepa yodgorligidan 30 km, Qarshidan esa 35 km masofa uzoqlikda joylashgan. Hozirda qishloq chekkasida Kasbitepa nomi bilan atalgan shahar xarobasi mavjud bo‘lib, uning eng pastki qatlamlari ham miloddan avvalgi II-I asrlarga taaluqlidir [Kabanov 1977: 179]. O‘rta asr yozma manbalarida Nasaf (Qarshi) va uning atrofidagi yerlarni sug‘orish ishlari Qashqadaryo suviga

ILMIY AXBOROT

to'raligicha bog'liq bo'lmaganligi aytiladi. Chunki yoz oylarining o'rtalariga kelib Qashqadaryoning suvi qurib qolgan. Milodiy eraning boshlarida esa vohada bunday suv yetishmovchilik to'g'risida muammolar deyarli kuzatilmagan. Masalan, o'sha davr shahar xarobalarining ko'p qismini hozirgacha saqlanib qolganligi bunga misol bo'la oladi. Vohada yoz mavsumida suv yetishmovchilik muammolari antik davrga nisbatan o'rta asrlarda ko'proq kuzatilgan. Bu to'g'risida o'rta asr arab yozma manbalarida ko'proq aytilgan. Chunki X-XI asrlarga kelib Movarounnahrda, ilm-u fanning rivojlanishi tufayli Qashqadaryo suvlarining bir qismi oddiy yangi texnik suv inshootlari orqali, yer sathidan yuqori bo'lgan Keshning sharqiy hududlaridagi yer maydonlarini sug'orishga sarflanganligi aytiladi. 1219-1220 yillarda Chingizxon boshliq mo'g'ullar qo'shinlarining Movarounnahrda hujumi davrida bu mintaqadagi deyarli barcha shaharlar va qishloqlar vayronaga aylandi, mahalliy aholining yarmidan ko'prog'i qatil qilindi, sug'orish tizimlari, sug'orish inshootlari butunlay ishdan chiqdi, butun mamlakat iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi. O'sha davrda bu voqelik Qashqadaryo vohasida ham chuqur tanazzul sifatida baholanadi.

Movarounnahrda mo'g'ullar davlati Chig'atoy ulusi davrida davlatning inqirozini to'xtatish yo'lida mahalliy hokim Mas'ud ibn Maxmud Yalavoch tomonidan bir qator iqtisodiy islohotlar, shu jumladan pul islohoti ham amalga oshirilgan. Bu davrda vayron bo'lgan shaharlarni tiklash ishlari amalga oshirilgan. Mana shu davrda shubhasiz sug'orish tizimlari va sug'orish inshootlari ham tiklangan. Chig'atoy ulusi xonlaridan biri Kepakxon davrida (hukmronligi 1318-1326 yillar) Qashqadaryoning chap sohiliga yaqin joyda, Qarshi shahriga asos solingan. Mana shu davrda Qashqadaryodan chiqarilgan va Qarshi shahri yaqinidan o'tib Nasaf shahriga qarab oqqan ariqlar qayta tiklanib ishga tushirilgan. Qozonxon Sulton davrida (hukmronligi 1334-1347 yillar) Qashqadaryoning quyi oqimida yuqorida nomi keltirilgan Ko'hna shahar xarobasi qishlog'idan 3 km shimoli-g'arbda, Chig'atoy ulusining yangi poytaxti sifatida Zanjir Saroy qurilgan. Mana shu davrda Ko'hna shahar qishlog'idan bir km chamasi g'arbda Qashqadaryoning chap sohilidan yangi ariq chiqarilgan, bu ariq shimoliy-g'arbgacha qarab 2,5 km masofada ikki tarmoqqa ajralib oqqan. Uning chap tarmog'i Zanjir Saroyga qarab oqqan bo'lsa, ikkinchi tarmog'i Zanjir Dumaloq qishlog'i tomonga oqqan. So'ngra o'zan Zanjir Dumaloq yaqinidan burilib to'g'ri shimol tomonga qarab yana 4 km chamasi oqib o'tib Qashqadaryoga qayta quyilgan. Bu ariqning nomi hozirgacha saqlanib qolgan, mahalliy aholi tomonidan "Podsholik arig'i" nomi bilan yuritiladi (Raimqulov, Sultonova 2005: 219). Ariqning uzunligi 9,5-10 km lar chamasi bo'lib, uning Zanjir Saroygacha bo'lgan qismidan hozirgacha foydalaniladi. Ariqning qolgan qismini o'zani hozir ham yaxshi ko'zga tashlanadi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Amir Temur davrida Qarshi vohasiga yangidan bunyod etilgan sun'iy sug'orish tarmoqlari orqali suv olib kelingan. Masalan, o'sha davr sun'iy sug'orish ariqlardan biri "Tum suvi" nomi bilan ma'lum bo'lgan. "Tum"(a) – nomining kelib chiqishi Yenisey tillari bilan bog'liq bo'lib, "qora daryo" ma'nosini bergan.

XULOSA

Yozma manba, tarixiy va geografik ma'lumotlarga suyanganda quyidagicha xulosa qilish mumkin.

a). Qashqadaryo daryosining nomi eramizning boshlarida Xitoy yozma manbalarida "Du-mo" nomi bilan atalgan.

b). O'rta asrlar arab yozma manbalarida esa Qashqadaryo daryosining nomi Asrud, "Nahr Asrud" yoki Kashkrud deb atalgan.

v). Turkiy qavmlarda esa daryoning nomi Kashk-rud kabi mahalliy nomlar bilan ham atab kelingan.

g). So'nggi o'rta asrlar yozma manbalarida esa daryoning nomi Qashqa nomi bilan ham qayd etilgan.

Umuman olganda Qashqadaryo deb atalishiga taxminan shu nom sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бичурин Н.Я. (Иакинф), Собрание сведения о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах // М., Л., 1950-1953. 382 с.

2. Ибн Хордадбек. Книга путей и стран // Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Валихановой, Баку, 1986. С.76.

3. Ан-Наршахий Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи. Форс тилидан ўзбек тилига А.Расулов таржимаси, Тошкент, 1991.
4. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. Пер. Б.А. Ахмедова Т., 1977. 167 с.
5. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард / Араб тилидан ўзбек тилига Ш. С. Камолиддин таржимаси. – Тошкент, 2011. Б.65-67.
6. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дисс.канд.филол.наук. Санкт-Петербург: ЛО ИВ РАН, 2004.С. 389.
7. Лурье П.Б., Ляпунова К., Мате М., Пиотровский Б., Литнер Н. Очерки по истории техники Древнего Востока М.–Л., 1940. 352 с.
8. Ат-Табари. История ат-Табари. Избранные отрывки / Пер. с араб. В.И. Беляева. Дополнения к переводу О.Г. Большакова и А.И. Халдомирова. Тошкент, 1987. 340 с.
9. Раимкулов А.А. Қашқадарё воҳасининг ўрта аср шаҳарлари. Қарши “Насаф” нашриёти, 2018, 102-103 бетлар.
10. Кабанов С.К. “Археологические работы 1948 года в Каршинском оазисе” Труды ИА АН РУз. Т.И. Ташкент, 1950. С. 127.
11. Шарофиддин али-Яздий. “Зафарнома” , Тошкент. 1997.
12. Мукаддасий. Арабские источники X-XI веков, -Л., 1967.
13. Абу Саид Абд ал-карим ибн Муҳаммад ас-Самъани. ал-Ансаб // Изд. Абд ар-Рахмани ибн Йахйя ал-муаллима ал-Иамани. В. 10 томах, Байрут, 1981.
14. Худуд ул-олам. (Мовароуннаҳр тавсифи) Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. -Тошкент, 2008. Б. 64.
15. Лунина С.Б. Города южного Согда в VIII-XII вв. Т. «Фан», 1984 . С. 28.